

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETI
ILMIY-TADQIQOT BO‘LIMI**

*“O‘zbekiston Milliy universiteti talabalar va ilmiy-
tadqiqotchilarining ilmiy konferensiyasi”*

mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari

II-QISM

Toshkent – 2022

UO'K: 37.046.16:378(063)(08)

O'zbekiston Milliy universiteti talabalar va ilmiy-tadqiqotchilarining ilmiy konferensiyasi / mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Mas'ul muharrir: I.U.Madjidov. – Toshkent, 2022. – 364 b.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot bo'limi "Talabalar va ilmiy-tadqiqotchilarini ilmiy konferensiyasi" ilmiy bo'lim tomonidan – 28 aprel kuni talabalar va ilmiy-tadqiqotchilarni ilmiy amaliy anjumani tashkil qilindi. Konferensiya an'anaviy ravishda yillar davomida o'tkazilib kelinmoqda. Bu yilgi anjumanda universitet tomonidan talabalar va ilmiy-tadqiqotchilar olimlar faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlari va ma'naviy-ma'rifiy masalalarining universitet faoliyatidagi o'rni masalalari atroflicha tahlil etilgan.

To'plamdagi iqtibos va ma'lumotlarning to'g'riligiga maqola mualliflari javobgar.

Tahrir hay'at kengashi raisi:
kengash raisi o'rinbosari:

t.f.d., prof. I.U. Madjidov
PhD., X.X. Saburov

Tahrir hay'ati:

professor	T. Abduraxmonov	dotsent	Sh. Sharipov
professor	A. Mo'minov	dotsent	K. Raxmonov
professor	A. Umarov	PhD	K. Inakov
professor	O. Zikirov	dotsent	V. Raximov
professor	Sh. Qodirova	dekan	X. Bakiyev
f.m.f.doktori	Z. Raxmonov	dotsent	M. Mirsoatova

Taqrizchilar:

professor M. Aripov
professor X. Yunusova
professor L. Gafurova

Texnik muharrirlar:

ITB etakchi mutaxassisi X. G'ulomova
ITB etakchi mutaxassisi X. Olimjonov
ITB muxandis K. Ergashev
ITB mutaxassisi D. Ubaydullayeva

Konferensiya materiallari O'zbekiston Milliy Universitetining Ilmiy-texnikaviy kengashida ko'rib chiqilib, nashrga tavsiya etilgan (24.03.2022 yildagi № 3 sonli bayonnoma)

<i>A. D. Murova</i> ИЗМЕНЕНИЯ ПО ДЛИНЕ РЕКИ ЧИРЧИК ПОКАЗАТЕЛЕЙ ХПК И БПК ₅ , ХАРАКТЕРИЗУЮЩИХ ЕЁ САМООЧИЩАЮЩУЮ СПОСОБНОСТЬ.....	116
<i>L. F. Ashmurov</i> КАШҚАДАРЁ ҲАВЗАСИ ДАРЁЛАРИ ОҚИМИГА АТМОСФЕРА ЁГИНЛАРИ ВА ҲАВО ҲАРОРАТИНИНГ ТАЪСИРИНИ СТАТИСТИК БАҲОЛАШ.....	120
<i>N. Otmonov, K. Raxmonov, G. Umirzakov</i> CHIRCHIQ DARYOSI OQIMI SHAKLLANISHIGA ATMOSFERA YOG'INLARINING TA'SIRINI STATISTIK BAHOLASH VA UNI PROGNOZLASH IMKONIYATLARI.....	122
<i>M. Xamidjonova</i> АНТРОПОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ СО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЫ XVIII ДО СЕРЕДИНЫ XX ВЕКОВ.....	125
<i>A. Abdullayev</i> O'ZBEKISTON TARIXI FANIDA MOBIL DASTURLARNING O'RNI.....	126
<i>T. Sarsenbaev</i> ANTIK DAVRDAGI MADANIYAT VA ILM FAN (QOYQIRILGAN QAL'A MISOLIDA).....	127
<i>N. Salimov</i> IJTIMOY ANTRPOLOGIYA SOHASIDA DALA TADQIQODLARI METODOLOGIYASI YARATILISHI VA UNDA MARGARET MIDNING O'RNI.....	129
<i>M. Tolibova (Bakirova)</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР СТРАТЕГИЯНИНГ МАЪМУН - МОҲИЯТИ.....	130
<i>M. Siddiqov, K. Ergashev</i> "KATTA UCHLIK" DAVLAT RAHBARLARINING TEHRON KONFERENSIYASIDA UCHRASHUVI.....	132
<i>Yu. Akramova</i> AFG'ONISTONDA ROSSIYA VA BUYUK BRITANIYANING TO'QNASHUVI.....	133
<i>G. Ibodullaeva (Norbutayeva)</i> XI TOY MANBALARIDA XORAZMSHOHLAR DAVLATIGA OID MA'LUMOTLARNING ANAMIYATI.....	135
<i>X. Olimjonov</i> 1900–1917 YILLARDA TURKISTON ULKASIDAGI KUTUBXONALAR TARIXI.....	136
<i>P. Rasulova</i> TURKISTONDA TATAR-BOShQIRD MARKAZII BIIROSII VA SEKCIYASI FOLIIYATI.....	139
<i>J. Qodirov</i> TARIX FANIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR.....	141
<i>J. Burtayev</i> XIX ACP IKKINCHI YARMI – XX ACP BOShLARIDA SAMARQAND VILOYATI URMON XUJHALIGINING ARXIV XUJжатLARIDA ERITILISHI.....	144
<i>H. Gulomov</i> 1926 YILDA UZBEKISTON SSR AQOLISINNI RYIXATTA OLINII TADBIIRIGA TARIXII NAZAR.....	146
<i>G. Sh. Ibrodullaeva</i> MARKAZII OSIIEDA TOLERANTLIK FOYLARINING RIVOJLANISHI VA UNING AQMIYATI.....	148
<i>A. Abdullayev</i> CHET TILINI O'RGATISHDA KOMPETENSIYAVIY NAZARIYALAR.....	150
<i>J. Davronov</i> JANOV BALABAN HAYOTIGA O'ZBEKONA NAZAR TAVSIFI.....	151
<i>M. Jurayeva</i> A COMPARATIVE STUDY OF THE CONCEPTUAL METAPHORS OF TIME IN RUSSIAN, ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	152
<i>V. Isroilov</i> THE ROLE OF THE ENGLISH LANGUAGE IN THE MODERN WORLD.....	155
<i>G. Kirbatova</i> TARJIMADA EKVALENTLIK VA ADEKVATLIK KATEGORIYALARI.....	156
<i>M. Mukhtorova</i> EFFECTIVE WAYS OF TEYL.....	158
<i>A. Natmova, N. Bokhshillayeva</i> THE USAGE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING AND TRAINING YOUNG GENERATION.....	159
<i>D. Raxmatova</i> CHET TILLARNI O'RGANISHIDA YOSHLARNING NUTQ MADANIYATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY METODLARNING O'RNI.....	160
<i>M. Saparova</i> TINGLAB-TUSHUNISHGA MO'LJALLANGAN MASHQ TURLARI.....	162
<i>Yo'ldosheva G.</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TAKRORNING TURLARIDAGI MULOHAZALAR.....	163
<i>F. Yuldasheva</i> EXPRESSIONS OF LINGUISTIC POLITENESS.....	164
<i>J. Sh. Djumaboyeva, D. S. Yusupova</i> THE STUDY OF TAXONOMY IN LINGUISTICS.....	166
<i>P. Alikulova</i> OBRIZ OSENI V RUSKOI LITERATURE I POLOVINY XIX VEKA.....	167
<i>D. Akhmedjanova</i> ROL' ISTORIZMOV V XUJODJESTVENNOM TEKSTE.....	168
<i>U. Jurayeva</i> "BOBURNOMA" MATNIDAGI TOPONIMLAR INGLIZCHA TARJIMALARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI.....	169
<i>F. Irkabaeva</i> POETIKA ZHANA RASKAZA V TEORII LITERATURE.....	170
<i>V. Matkurboeva</i> TVORCHESTVO LYUDMILY STEFANOVNY PETRUSHEVSKOI V KONTEKSTE POSTMODERNIZMA.....	172

TINGLAB-TUSHUNISHGA MO'ljALLANGAN MASHQ TURLARI

Saparova Mohigul Ramazonovna

Buxoro Davlat universiteti

Ingliz tilshunosligi kafedrası, o'qituvchi

Hozirgi keng taraqqiy etayotgan davrda ko'p tillar qatorida aynan ingliz tiliga talab, uni o'rganishga qiziqish kundan-kunga oshib borayotganligi bu tilning har tomonlama o'rganilishiga zarurat hozirlayapti. Buni mahsuli o'laroq, ingliz tilidagi egallanishi talab qilinadigan to'rt malakalar: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish, bu tilni o'rganayotganlar uchun chambarchas holda yuqori ahamiyatga ega. Bular orasida birinchi o'rinda ta'kidlab o'tilgani, tinglab tushunish, keyingi malakalar uchun ham poydevordir, hamda mustahkamlovchi vosita vazifasini o'tab beradi.

Tinglab tushunishga mo'ljallangan (auditiv) mashqlar sistemasi maqsadiga ko'ra ikki turga bo'linadi: maxsus va maxsus bo'lmagan mashqlar.

Maxsus bo'lmagan mashqlarda tinglab tushunish yo'l-yo'lakay o'rganiladi. Masalan, dars boshlanishidagi nutqiy mashg'ulot, so'z ma'nosini ochish chog'ida muallim hikoyasini eshitish, grammatikaning taqdimotidagi muallim gaplarini tinglash, o'zga shaxs nutqini magnit tasmasiga yozish kabilar maxsus bo'lmagan mashqlar jumlasiga kiradi. Chet tilda dars olib borish ham tinglab tushunishni o'rganishda ajoyib ish uslubidir. O'quvchilar dars davomida ishlatiladigan jumlalarni tushunishlari uchun muallim juda ko'p marta takrorlamasligi, o'ta sekin ham aytmasligi, har doim ona tiliga tarjima qilavermasligi talab etiladi.

Maxsus mashqlar, o'z navbatida, tinglab tushunishga tayyorlov va so'f nutqiy mashqlarga bo'linadi. (Birinчисini ayrim mualliflar til (materiali)ga oid mashqlar deyisha, boshqalari shartli-nutqiy mashqlar nomi bilan ham yuritishadi.) Tayyorlov mashqlarining obyektı akustik signal (ya'ni quloqqa yetka-ziladigan so'z, jumla, gaplar majmuyi) bo'lib, nutqiy mashqlarda esa o'quvchi mazmunni egallash bilan band bo'ladi.

Tayyorlov mashqidan ko'zlanadigan maqsad oldindan (matnı tinglashgacha) qiyinchiliklarni bartaraf qilishdir. Tayyorlov mashqlari tilga oid va o'quvchi psixologiyasi bilan aloqador mashkulotning oldini olishda bajariladi. Lisoniy qiyinchiliklarni bartaraf etishda o'zga nutqdagi yangi hodisalarni topib farqlash va tushunib yetish, tovush timsolini ma'nosi bilan bog'lash, so'z yasashini fahmlab ma'no chiqarish, leksik va grammatik birlikning kontekstdagi ma'nosini ochish, ma'nodosh (sinonim) va zid ma'noli (antonim) hodisalarni tanib olish va anglash singari mashqlar bajariladi. Ular tinglab tushunishning leksik, grammatik va talaffuzni eshitish mashqlari sifatida namoyon bo'ladi. Farqlash va o'xshatishdan iborat bilib olish jarayoni ifodalanadi.

Tayyorlov mashqining psixologik qiyinchilikni oldini olish turi esa o'quvchilarning mazmunni oldindan ilg'ay bilish, sotinni rivojlantirish, tinglash mahoratini oshirish, ichki nutqi qisqartirish singarilarda bajarish ma'quldir. Tayyorlov mashqlari tinglab tushunishning dastlabki bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Ular til hodisalarini bilib olish va ma'nosini fahmlash ko'nikmalarini shakllantirish, til birliklarining eshituv timsolini hosil qilish, ma'nosi ochilgunga qadar shakllarni oldindan ilg'ash va xotirada saqlashga qaratilgan mashqlardir.

Nutq mashqlari esa kommunikativ (muloqot) vazifani o'tashmo'ljallanadi. Ularni auditiv faoliyatga yo'llovchi va bu faoliyat bilan shug'ullanish mashqlariga ajratish mumkin. Yo'llovchi (oriyentir) mashqlar o'quvchiga til va hayot tajriba-sidan foydalanib, audiomatni tushunishda turli lingvistik va nolingvistik tayanchlarga asoslangan holda ish tutishni o'rgatadi. Kontekstni fahmlash, tajribadagi bilimlarni ishlatish, leksikaning xususiyatini ilg'ash, qiyinchiliklarni yengib matnı tushunish kabilar yo'llovchi mashqlar sirasiga kiradi. Shug'ullanish mashqlari esa so'f nutq mashqlari bo'lib, auditiv faoliyatning namunaviy shakli sifatida yuzaga keladi.

Nutq mashqlarining uch bosqichli ekanligi fanda aniqlangan: axborotni eshitishga tayyorgarlik, uni eshitish va eshitganini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ularning har bir qismi alohida vazifalarni o'taydi. Birinchisi (tayyorgarlik) faoliyat yuritish motivatsiyasi (ichki turtkisi)ni aks ettiradi. Muayyan vazifalarni ijro etish bilan bog'liq bosqichdir. Notanish so'zlarni bilsa/bilmasa audiomatni mazmunini fahmlay olish ko'nikmasi shakllantiriladi. Nutq faoliyatining boshqa turlari bilan O'NV yordamida aloqa bog'lanadi. Shu yo'l bilan tinglash (va keyin gapirish) ehtiyoji tug'diriladi. „Eshiting - tushuning“ yoki „Eshiting - savol bering“ tarzidagi topshiriqlardan O'NVning ijobiy farqi shundaki, unda bilishga intilishning muammoli vaziyati tashkil qilinadi. Rasmlar, verbal (so'z bilan tasvirlanadigan) holat hamda ekran vositalari yordamida tinglab tushunish bo'yicha nutqiy mashq bajarishga kirishiladi.

Audiomatni tinglash bosqichi analiz-sintez qilish va auditiv faoliyatning ijro qismi sifatida namoyon bo'ladi. Bog'lanna matnı tinglash chog'ida asosiy e'tibor mazmunni idrok etib tushunishga qaratiladi. Audiomatning til tomoniga g'ayrushuriy munosabat yuritila boshlaydi. Boshlang'ich davrda ong ishtiroki sezilib turishi tabiiy.

Auditiv mashqlardagi tinglanganning natijalarini tahlil etish qismida audioaxborotni o'zgalarga yetkazish (bayon qilish), oldin o'zlashtirilgan axborot bilan o'xshashligi/noo'xshashligini aniqlash, mazmun tomoniga baho berish, unga qo'shimcha qilish, tahlil etish kabilar amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan shu narsa yaqqol ayonki, ingliz tili o'rganilar ekan tinglab tushunish zaruriy malaka hisoblanadi va bunda shunchaki audio matni taqdim etish kutilgan maqsadga olib bormaydi, aksincha, mashqlarni davomiy tarzda maqsadli, jalb qilinib, tashkillashtirilishi yuqori ahamiyatga molik bo'lib, tinglab tushunishdan ko'zlangan maqsadga yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jalolov J. "Chet tili o'qitish metodikasi". O'qituvchi, -Toshkent, 2012 y
2. Hoshimov O', Yoqubov I. "Ingliz tili o'qitish metodikasi", Sharq -Toshkent, 2003 y

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TAKRORNING TURLARIDAGI MULOHAZALAR

Yo'ldosheva Gulchehraxon Shavkatjon qizi
O'zbekiston Milliy Universiteti
Xorijiy filologiya fakulteti
1-kurs magistr talaba

Mamlakatimiz yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy, ilmiy va texnologik sohalarida hamkorlik qilishni avj oldirgan hozirgi davrda - har kungi hayotimizning barcha sohalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar chet tilida, ayniqsa, dunyo tiliga aylanayotgan, ingliz tilida barcha janrda yozilgan matnlarni o'qib, tushuna olishlari, shu bilan birga barcha sohada tegishli matnlarni yoza olishlarini davr taqozo etyapti. Bu boradi xorijiy tilshunos olimlarning tadqiqotlari bilan birgalikda mamlakatimiz tilshunos olimlari ham salmoqli ilmiy -tadqiqotlarni olib bormoqdalar. Ilmiy tadqiqotlarda ingliz tilining grammatikasi, leksikasi, fonetikasi bilan birgalikda uning uslubini, ya'ni stilistikasini o'rganishi kerak. Bizning maqolamiz ham yuqorida ko'rsatilgan masalalardan biri haqida.

Stilistika sohasiga bugungi kunda ko'plab olimlarimiz o'zlarini o'quv qo'llanma darsliklarida, monografiyalarda, avtoreferatlarida, disertatsiyalarda ilmiy maqolalarda va boshqa ishlarida o'zlarini hissalarini qo'shganlar va qo'shib kelmoqdalar: ulardan A. Shomaqsudov, M. Halilova, S. Sultonsaidov, A. Musayev, O'. Sharipova, H. Rustamov, va rus olimlaridan I. Galperin, I. Kuxarenskiy, V. Vinogradovlar. Ushbu olimlar o'zlarining ilmiy -tadqiqotlarida stilistik takror boyicha ham ishlar olib borgan.

A. Shomaqsudov o'zining o'zbek tili stilistikasida takrorga quyidagilarni bayon qiladi. Takror – bu so'zlovchi aytayotgan gapida o'z hissiyatini ifodalashga mos emasliligini anglab, miqdorni ko'paytirish orqali sifatini ta'minlashga harakat qiladi. Shunda takror yuzaga keladi. Takror hissiyotli nutqni ifodalaydi¹³.

Rus olimlardan biri I.Galperin ham stilistik takrorga quyidagicha ta'rif bergan "takrorlash, shuningdek, hissiy tilda kelib chiqadigan qurilmalardan biridir. Mantiqiy tilga qo'llanganda takrorlash shunchaki grammatika vositasiga aylanadi. Uning kelib chiqishi eng yuqori keskinlikka olib keladigan tuyg'u ifodasi bilan birga keladigan hayajonda ko'rinadi"¹⁴.

Takror – ayrim so'z va iboralarning, ba'zan mislalar yoki bir nechta mislalarining muayyan bir tartib asosida qayta-qayta qo'llanilishidir. Takrorlar asardagi poetik maqsadni ro'yobga chiqarish uchun, unga mos tarzda fikrni goh bo'rtiradi, goh kuchaytiradi, goh detallashtiradi, goh bosh diqqatni qaratadi. Takrorlarning ko'rinishlari ko'p bo'lib, ulardan quyidagilarni o'rganamiz.

Takrorning alliteratsiya turini ko'rishimiz mumkin. Alliteratsiya bu fonetik stilistik qurilma bo'lib, u olangdor ta'siri gappa ajratishni yaxshilashga qaratilgan va mohiyati o'xshash tovushlarni, xususan undosh tovushlarni, ketma-ketlikda, ayniqsa ketma-ket so'zlarning boshida takrorlash tushuniladi.

Misol uchun:

*-Bolam, bolajonim, bolajonim, -Bahri xolaning butun vujudi
tirardi... -Xayr, qizim, Baxtli bolgin, Baxtli bolinglar. (Saida Zannunova)*¹⁵

Ingliz tilida ham alliteratsiya hodisasini ko'rishimiz mumkin:

*"Had we but world enough and time
This coyness, lady, were no crime
We would sit down, and think which way
To walk and pass our long love's day"*¹⁶

Takrorning ikkinchi turi bu anafora deb ham ataladi. Misra yoki gap bo'lagining boshida kelgan takror anaphora deyiladi.

No sun – no moon!

¹³ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qong'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. —T.: «O'qituvchi», 1983

¹⁴ Galperin I. "English Stylistics" MOSCOW-URSS in 1982 p 211

¹⁵ Sultonsaidova S., Sharipova O', "O'zbek tili stilistikasi" T., YURIST MEDIA MARKAZI 2009, 65 B

¹⁶ ...